

## *Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*



# 2019-yilning yanvar-avgust oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi  
**939,9** mld. so‘m

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**3,5 %**

Kichik korxona va  
mikrofirmalar ulushi  
**80,3 %**

Norasmiy sektor ulushi  
**16,2 %**

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatida jami 939,9 mld. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **123,5 %** ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **32,6** mld. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **142,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **754,8** mld. so‘mni yoki jami qurilish ishlarinining **80,3 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **116,9 %** ni tashki etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **152,5** mld. so‘mni yoki jami qurilish ishlarinining **16,2 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **159,5 %** ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-**32,6** mld. so‘m

o‘sish sur’ati-**142,7 %**

### Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi-**754,8** mld. so‘m


o‘sish sur’ati-**116,9 %**

### Norasmiy sektor

hajmi-**152,5** mld. so‘m

o‘sish sur’ati-**159,5 %**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 73,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 16,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % bandga kamaydi.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,3 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % ga kamaydi.

**Qurilish ishlaringning faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-avgust

- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik qurilish obektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2018-yil  
yanvar-avgust


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi**  
*(mlrd. so‘m)*

	<b>Jami qurilish ishlari</b>	<b>shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha</b>		
		<b>yirik pudrat tashkilotlari</b>	<b>kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>norasmiy sektor</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>939,9</b>	<b>32,6</b>	<b>754,8</b>	<b>152,5</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	305,7	8,4	243,9	53,4
Shirin	50,3	1,0	47,4	1,9
Yangiyer	82,4	1,0	71,4	10,0
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	75,1	0,2	63,0	11,9
Guliston	43,7	-	35,4	8,3
Mirzaobod	88,1	4,9	71,2	12,0
Oqoltin	67,5	5,1	55,3	7,1
Sardoba	20,0	-	11,6	8,4
Sayxunobod	40,0	1,0	32,2	6,8
Sirdaryo	113,6	-	86,5	27,1
Xovos	53,5	11,0	36,9	5,6

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

### Sirdaryo viloyati




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati 123,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 131,7 %, Mirzaobod tumanida 127,4 %, Yangiyer shahrida 118,9 %, Boyovut tumanida 122,0 % va Oqoltin tumanida 126,1 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘sish sur’ati Xovos tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 141,5 % ni tashkil qildi.



## **Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari** *(jamiga nisbatan % da)*



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxona va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 80,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,9 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 142,7 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 16,2 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 159,5 % ni tashkil qildi.




## **Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari** (jamiga nisbatan % da )

**2018-yil yanvar-avgust**



**2019-yil yanvar-avgust**



Davlat mulkchilik shakli

Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 59,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-avgustiga nisbatan 1,2 % bandga ko'paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 880,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,6 % ni (2018-yil yanvar-avgustiga nisbatan 1,2 % bandga kamayish) tashkil qildi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 32,5 % to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,1 %, Mirzaobod tumanida 9,4 % ga, Yangiyer shahriga 8,8 % va Boyovut tumaniga 8,0 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(71) 230-86-27